

AMALIY USLUBIY QO'LLANMA

MEHMONXONALARDA MILLIYLIKNI TARG'IB QILISH

Me'morchilik, gastronomiya, xizmat ko'rsatish va madaniy dasturlar

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasi

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari uchun

TOSHKENT - 2026

Maqsad va foydalanish tartibi

Qo'llanma barcha hududlardagi mehmonxonalar uchun amaliy va ko'rgazmali tavsiyalar beradi.

HUQUQIY ASOS

2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son qaror doirasida mehmonxonalarda milliylikni targ'ib qilish, holatni o'rganish, tavsiya berish, madaniy tadbirlarni qo'llab-quvvatlash va natijani kuzatish vazifalari belgilangan.

1

O'RGANISH

Mehmonxonadagi mavjud holatni audit va foto-dalil bilan baholash.

2

TAVSIYA

Rahbariyat bilan ustuvor yo'nalish, mas'ul va muddatni kelishish.

3

JORIY ETISH

Dizayn, taom, xizmat va madaniy dasturlarni bosqichma-bosqich kiritish.

4

KUZATISH

Amalga oshirilgan ishlarni foto, mehmon fikri va qisqa axborot bilan qayd etish.



SIFAT TAMOIYILLARI

Milliylik - bezak emas, yaxlit mehmon tajribasi

Milliy muhit samimiy xizmat, qulaylik va mahalliy hikoya orqali yaratiladi.

1

Haqiqiylik

Buyum va naqshlar barhayot an'ana hamda mahalliy ustaga tayanadi.

2

Mahalliylik

Har bir hudud o'z hunarmandchiligi, taomi va musiqasini tanlaydi.

3

Me'yor

Naqsh va rang xizmatga xalaqit bermaydi, dekor ortiqcha bo'lmaydi.

4

Qulaylik

Sanitariya, xavfsizlik, ergonomika va inklyuziv qulaylik ustuvor.

YO'L QO'YILMAYDI

- soxta yoki arzon imitatsiya;
- xodimni sahna kostyumida ishlatish;
- milliylik bahonasida gigiyena va qulaylikni pasaytirish.



Mehmonxona uchun tezkor audit

Har bir bandni 0 - mavjud emas, 1 - qisman, 2 - to'liq mezonida belgilang.

TEKSHIRILADIGAN BAND VA DALIL	0	1	2
Fasad va kirish Mahalliy material yoki naqsh sifatli va me'yorida qo'llangan.	☐	☐	☐
Xoll va jamoat joyi Hunarmandchilik buyumi muallif va hudud to'g'risidagi ma'lumot bilan namoyish etilgan.	☐	☐	☐
Mehmon nomeri Milliy mato yoki dekor xavfsiz, toza va qulaylikka xalaqit bermaydi.	☐	☐	☐
Gastronomiya Nonushta yoki menyuda milliy va hududiy taomlar mavjud.	☐	☐	☐
Idish va tekstil Sifatli kulolchilik va milliy elementli tekstil mahsulotlari ishlatiladi.	☐	☐	☐



Mehmonxona uchun tezkor audit

Har bir bandni 0 - mavjud emas, 1 - qisman, 2 - to'liq mezonida belgilang.

TEKSHIRILADIGAN BAND VA DALIL	0	1	2
Xodimlar Kutib olish iborasi, odob-axloq qoidalari va mos uniforma elementi bor.	☐	☐	☐
Milliy cholg'u va musiqa Milliy cholg'u namunalarini namoyish etish, milliy musiqani me'yorda qo'llash.	☐	☐	☐
Mahsulot burchagi Mahalliy mahsulot, aniq narx va ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot bor.	☐	☐	☐
Madaniy dastur Yillik yoki mavsumiy reja, hamkor va mas'ul belgilangan.	☐	☐	☐
Natijani qayd etish Foto-dalil, mehmonning fikr-mulohazasi va qisqa axborot yuritiladi.	☐	☐	☐



NATIJANI TALQIN QILISH

0-7 ball - boshlang'ich 8-14 ball - rivojlanayotgan
15-20 ball - yaxshi amaliyot

1-YO'NALISH

Me'morchilik va interyer

Milliy naqshlar zamonaviy qulaylikni qo'llab-quvvatlaydigan aniq jihat sifatida ishlatiladi.

Amaliy tavsiyalar

- Kirish va kutish hududiga bitta mos g'oya tanlang.
- Ganch, yog'och, koshin yoki misgarlik buyumini usta nomi bilan ko'rsating.
- Kirish, xoll, restoran va boshqa jamoat joylarida dutor, doira, g'ijjak kabi milliy cholg'u namunalarini nomi va ular haqida qisqa ma'lumot bilan xavfsiz namoyish eting.
- Dekor va ekspozitsiya mustahkam, yaxshi yoritilgan va oson tozalanadigan bo'lsin.

KIRISH NAMUNASI

- 1 ta bosh naqsh
- 1 ta hunarmand buyumi
- milliy cholg'u ekspozitsiyasi
- hudud va usta nomi
- toza va erkin yo'nalish

Rasm sun'iy intellekt yordamida yaratilgan illyustrativ vizual.



2-YO'NALISH

Nomer dizayni

Nomerdagi milliy elementlar uyqu va qulaylikka xalaqit bermaydigan tarzda bo'lishi kerak.

Amaliy tavsiyalar

- 1-3 ta asosiy jihat: so'zana, atlas/adras yostiq yoki o'ymakor detal.
- Matolarning yuvish shartlari va allergenligi tekshirilsin.
- Choy, quruq meva va kichik shirinlikdan iborat WELCOME TRAY taklif etilsin.

WELCOME TRAY

- choynak va piyola
- ko'k yoki qora choy
- quruq meva
- allergen belgisi

Rasm sun'iy intellekt yordamida yaratilgan illyustrativ vizual.



3-YO'NALISH

Milliy gastronomiya

Milliy taom xavfsizlik, porsiya va tushunarli taqdimot standartlari bilan birga joriy etiladi.

Amaliy tavsiyalar

- Nonushtada kamida 3 ta milliy va 1 ta hududiy mahsulot bo'lsin.
- Menyuda taomning tarkibi, allergenligi, achchiqligi va tayyorlash vaqti ko'rsatilsin.
- Milliy idishlarning butligi va oziq-ovqatning xavfsizligi tekshirilsin.

NONUSHTA TARKIBI

- issiq non
- qaymoq yoki asal
- meva/quruq meva
- issiq yengil taom
- ko'k yoki qora choy

Rasm sun'iy intellekt yordamida yaratilgan illyustrativ vizual.



4-YO'NALISH

Xodimlar va xizmat ko'rsatish

Samimiy kutib olish - milliy mehmondo'stlikning eng kuchli va esda qolarli ifodasi.

Amaliy tavsiyalar

- Mehmonni tabassum va qo'lni ko'ksingizga qo'yib kutib oling.
- Uniformada bitta qulay milliy element ishlating; sahna kostyumi emas.
- Xodim milliy taom, tadbir va mahalliy mahsulot bo'yicha qisqa tavsiya bera olsun.

60 SONIYALIK KUTIB OLISH

- salom va tanishtirish
- yuk bo'yicha yordam
- choy taklifi
- bugungi dastur
- mehmon istagini aniqlashtirish

Rasm sun'iy intellekt yordamida yaratilgan illyustrativ vizual.



5-YO'NALISH

Dam olish va madaniy dastur

Mehmon hurmatli ishtirokchi bo'lsin; dastur mahalliy usta va san'atkor bilan yaratiladi.

Amaliy tavsiyalar

- Milliy suvenir sotish burchagida usta, material, hudud va narx ochiq ko'rsatilsin.
- Kulolchilik, kashtachilik yoki taom bo'yicha qisqa mahorat darsi o'tkazing.
- Musiqa, folklor va mavsumiy bayram dasturlarini oldindan e'lon qiling.

MADANIY DASTUR

- musiqa oqshomi
- usta namoyishi
- taom taqdimoti
- mini-ko'rgazma
- milliy fotozona

OHANG.UZ - MILLIY OHANGLAR MANBASI

Mehmonxonalarga OHANG platformasidagi milliy kuylar va an'anaviy cholg'ular yozuvlaridan kirish, xoll, restoran hamda boshqa jamoat joylarida mos fon musiqasi sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Repertuar vaqt va ovoz me'yoriga mos tanlansin; platformadagi foydalanish shartlari tekshirilsin.

<https://ohang.uz/en>



Rasm sun'iy intellekt yordamida yaratilgan illyustrativ vizual.

Har bir viloyat - o'z hikoyasi

Yakuniy tanlov mahalliy mutaxassis va hunarmand bilan kelishiladi.



1

Qoraqalpog'iston R.

qoraqalpoq naqshi, kiyiz/gilam, Nukus san'at muhiti

2

Andijon

vodiy kashtasi, atlas/adras, Andijon palovi

3

Buxoro

zardo'zlik, miniatyura, ganchkorlik, Buxoro palovi

4

Jizzax

Baxmal mevalari, Zomin tabiati, Jizzax somsasi

5

Qashqadaryo

milliy musiqa va raqs, do'ppi, tandir taomlari

6

Navoiy

Nurota kashtasi, cho'l ranglari, mahalliy hunarmandchilik

7

Namangan

Chust do'ppisi va pichog'i, to'qimachilik

Har bir buyum, taom va musiqa uchun kelib chiqish ma'lumotini tekshiring.

Har bir viloyat - o'z hikoyasi

Yakuniy tanlov mahalliy mutaxassis va hunarmand bilan kelishiladi.



8

Samarqand

Samarqand qog'ozi, noni, palovi va me'moriy ranglar

9

Surxondaryo

Boysun kashtasi, folklori va tog'-dasht an'analari

10

Sirdaryo

Mirzacho'l manzarasi va mahalliy agro-mahsulot

11

Toshkent viloyati

tog' manzarasi, Parkent mahsulotlari, mahalliy ustalar

12

Toshkent shahri

zamonaviy shahar dizayni, muzey va palov madaniyati

13

Farg'ona

Rishton kulolchilik, Marg'ilon atlas-adras, Qo'qon o'ymakorligi

14


Xorazm

lazgi, Xiva yog'och o'ymakorligi, shivit oshi

Har bir buyum, taom va musiqa uchun kelib chiqish ma'lumotini tekshiring.

Milliy mahsulotlar burchagi

Ko'rgazma va savdo nuqtasi mehmon uchun tushunarli bo'lishi kerak.



Majburiy ma'lumotlar

- mahsulot nomi va hududi;
- usta yoki korxona nomi;
- material va parvarish;
- aniq narx va to'lov tartibi;
- aloqa yoki QR ma'lumoti.

YORLIQ NAMUNASI

Rishton lagani

Usta: _____

Material: sopol

Hudud: Farg'ona

Narx: _____ so'm

Parvarish: qo'lda yuvish

Nazorat: mahsulotning asl kelib chiqishi, yozma sotuv sharti, aniq narx, xavfsiz joylashuv va oylik qoldiq hisobi tekshiriladi.

2-VAZIFA: RAHBARIYAT BILAN UCHRASHUV

Qisqa uchrashuv va tavsiya varaqasi

Maqsad - kamchiliklarni sanash emas, amalga oshiriladigan 3 ta ustuvor vazifani kelishish.

1

Audit natijasi

Kuchli jihat va uchta asosiy bo'shliq.

2

Yechim

Dizayn, taom, xizmat yoki tadbirdan ustuvor yo'nalish.

3

Resurs

Mas'ul, mahalliy hamkor, xarajat va muddat.

4

Dalil

Foto, menyu, shartnoma yoki mehmon fikri.

5

Kelishuv

Keyingi nazorat sanasi va kutilgan natija.

Tavsiya varaqasi

Muammo/dalil:

Tavsiya:

Mas'ul va muddat:

Kutilgan natija:

Mehmon bilan muloqot namunalari

Iboralar tabiiy, samimiy va vaziyatga mos qo'llanadi.



KUTIB OLISH

Assalomu alaykum, xush kelibsiz!

YORDAM

Yuklaringizga yordam beraymi?

CHOY

Sizga ko'k yoki qora choy taklif qilsak bo'ladimi?

TADBIR

Bugun milliy musiqa dasturi bo'ladi. Ishtirok etishni xohlaysizmi?

Smena boshida 5 daqiqa: bugungi tadbir, mavjud milliy taom, allergenlar, mahalliy mahsulot va maxsus ehtiyojli mehmonlar eslatiladi.

MILLIYLIK XIZMATDA NAMOYON BO'LADI

Mehmon milliy muhitni ko'radi, eguliklar ta'mini his qiladi, hikoyani eshitadi va samimiy xizmat orqali eslab qoladi.

Foydalanish eslatmasi

- Rasmlar aniq mehmonxona yoki hududni tasvirlamaydi.
- Hududiy unsur mahalliy mutaxassis bilan tekshiriladi.
- Yechimlar mehmonxona brendi va bino xususiyatiga moslashtiriladi.

TAYYORLOVCHI TASHKILOT

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasi